XALQ DEPUTATLARI SHAROF RASHIDOV TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-54-187-3-46-K/23 Sharof Rashidov tuman hokimligi

Sharof Rashidov tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, O’zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida”gi O'RQ-886-sonli Qonuni, Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-50-301-3-0-K/23-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 99-moddasi hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 27-dekabrdagi 1-20-08-01-33/422–sonli xatiga asosan 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetini qabul qilish bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O’zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O'zbekston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida”gi O'RQ-886-sonli Qonuniga (keyingi o'rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Sharof Rashidov tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 112,3 mlrd. so'm, xarajatlari 216,3 mlrd.so'm prognoz qilinganligi hamda Respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 63,0 mlrd. so'm miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun tumanning daromadlar prognoz reja ko'rsatkichlari 1 va1.1-ilovalariga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari:

a) Quyidagi soliq turlari tuman mahalliy byudjetida qoldiriladi:

- Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i 20 foiz miqdori;
- Yakka tartibdagi tadbirkorlar to’laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i (qatiy belgilangan soliq) 100 foiz miqdori ;
- Jismoniy shaxslar yer solig’i 100 foiz miqdori;

 Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq 100 foiz miqdori

- Ijara to’lovlari 100 foiz miqdori

- Yuridik shaxslar yer solig’i 30 foiz miqdori;
- Suv resurslari-dan foydalan-ganlik uchun soliq 100 foiz miqdori;
- Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq 50 foiz miqdori;
- Aktsiz solig’i 60 foiz miqdori (benzin, dizel yoqilg’isi va gaz realizatsiyasidan)

b) Viloyat budjetiga quyidagilar soliq turlari o’tkaziladi:

- aylanmadan olinadigan soliq;
- qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);
- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;
- Ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig'imlar;
- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig’imlardan, g'ildirakli transport vositalari, o'zi yurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig'imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to'lovdan tashqari);
- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo’yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;
- davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar;

v) Qolgan soliq turlari viloyat va tuman o'rtasida ajratma me’yoridan kelib chiqib taqsimot qilinadi.

5. Tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, ajratma me'yorlari bo’yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman mahalliy budjetining taqsimotini o'rnatilgan tartibda G'aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

6. Ushbu qarorning 3-ilovasiga muvofiq tuman mahalliy byudjetining 2024 yil uchun daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmlari ma’lumot uchun qabul qilinsin hamda respublika byudjetidan tuman mahalliy budjetlariga o’tkaziladigan tartibga soluvchi transfertlar miqdori tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo’l qo’yilmasligi Qonunda belgilab qo’yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Tumanning tuman budjetidan 2024-yilgi hududiy budjet mablag’larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Qonunning 8-moddasiga muvofiq zaxira jamg’armalari mahalliy budjetlarning tasdiqlangan xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilishi belgilanganligidan kelib chiqib, 2024-yil uchun tumanning tuman budjeti zaxira jamg’armasi hajmi 1.9 mlrd.so’m miqdorida tasdiqlansin.

Tuman hokimligi zaxira jamg’armasi mablag’larini tuman byudjet parametrlarida ko’zda tutilmagan, kechiktirib bo’lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo’lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

9. 2024-yil uchun tuman budjetining yo’l qo’yiladigan eng kam mablag’lari miqdori 5-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PF-6121-sonli farmoni va tuman davlat soliq inspektsiyasining 2023-yil 22-dekabrdagi 19/-11150-sonli axborotnomasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq Sharof Rashidov tumani uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo’lgan jismoniy shaxslar (bundan dehqon xo’jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo’jaligi uchun mo’ljallangan yerlar mustasno) bo’yicha mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, Xalq deputatlari tuman Kengashi, yuqorida 1-2-ilovalar bilan belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo’lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlarni belgilash huquqiga egaligi ko’rsatib o’tilsin.Tuman budjetlarida shakllangan qo’shimcha manbalar moliya yili davomida tegishlicha tuman Xalq deputatlari Kengashlari qarorlari asosida ishlatilishi belgilansin. Kechiktirib bo’lmaydigan tadbirlarni moliyalashtirish holatlari yuzaga kelganda tegishli hokimlarning qaror va farmoyishlariga asosida ishlatilib keyinchalik Xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borilsin.

11. Tuman hokimligi tashabbusi bilan qo’shimcha ravishda amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag’lar tegishliligi bo’yicha ushbu mahalliy byudjetlarning ijrosi davomida shakllangan qo’shimcha manbaa mablag’lari hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo’yilsin.

12. Tuman hokimining birinchi o’rinbosari (M.Ergashev), Iqtisodiyot va moliya bo’limi boshlig’i (I.Nazarov), tuman soliq inspektsiyasi (E.Erkaboev) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko’rsatkichlarni o’z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning to’liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo’shimcha rezervlarni aniqlash

zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Tuman soliq inspeksiyasi (E.Erkaboev) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to’liq va to’g’ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o’z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig’i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo’yicha doimiy tahlililar o’tkazgan holda, soliqlarni to’liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to’lovlari bo’yicha soliq qarzdorligiga yo’l qo’ymaslik choralarini ko’rish;

aylanmadan soliq turi bo’yicha soliq to’lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to’liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o’rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o’tkazish;

Bunda, mazkur yo’nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ’ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig’ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14. Tuman soliq inspeksiyasi (E.Erkaboev), Kadastr agentligi tuman bo’limi (M.Sherqulov) 2022-yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig’ini hisoblashda ko’chmas mulklarga 1 m^2 uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to’lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to’liq hisoblanishini ta’minlasin va ushbu soliq turi undirilishi borasidagi o’zgarishlar tadbirkorlik sub’ektlariga iqtisodiy jihatdan qanday ta’sir etishi yuzasidan doimiy monitoring o’rnatib, Xalq depututlari tuman sessiyasiga axborot kiritib borsin.

15. Majburiy ijro byurosi tuman bo’limi (Sh.Akbo’taev), tuman soliq inspektsiyasi (E.Erkaboev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar bo’yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko’rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo’yicha barcha amaliy chora-tadbirlar ko’rish vazifasi yuklatilsin.

16. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo’shimcha manbalaridan foydalanish to’g’risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to’liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo’shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag’larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o’rnatishga va natijalari bo’yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga; mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo’naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag’larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

17. Tuman budjetining jami xarajatlarining kamida 5 foizi biroq, 6,0 mlrd.so’mdan kam bo’lmagan miqdorda rejalashtirish hamda shakllangan qo’shimcha

mablag’larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi”ga yo’naltirsin.

Bunda xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman (shahar) hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari, byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy byudjetning qo’shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to’g’risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko’ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

Tuman hokimining birinchi o’rinbosari (M.Ergashev), tuman soliq inspeksiyasi (E.Erkaboev), Iqtisodiyot va moliya bo’limi boshlig’i (I.Nazarov), Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati va tegishli tashkilotlar:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko’rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko’rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo’yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

18. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to’lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

19. Ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

20. Mazkur qaror “Jizzax tongi.uz” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

21. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **M.Xolbutayev**

Xalq deputatlari Sharof Rashidov
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-54-187-3-46-K/23-son qaroriga
1-ilova

Sharof Rashidov tumanining tuman mahalliy budjetining daromadlarining 2024 yildagi asosiy prognoz ko'rsatkichlari

Ming so'mda

T/R	Daromad turlari	Jami
	JAMI	**112 300 800**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i	2 787 000
2	YaTT daromad solig’i	1 486 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i	27 212 000
4	Aktsiz solig’i, jami	20 675 000
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg’isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*20 675 000*
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 582 000
6	Yuridik shaxslar yer solig’i	7 555 000
7	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	6 535 000
8	Suv solig’i	6 008 800
9	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	12 780 000
10	Jismoniy shaxslar yer solig’i	23 300 000
11	Xususiylashtirishdan tushum	250 000
12	Boshqalar	130 000

Xalq deputatlari Sharof Rashidov
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-54-187-3-46-K/23-son qaroriga
2-ilova

минг сўмда

Hudud nomi	**Jami daromad**	**shundan**		**shundan**	
		O'tkazib beriladigan daromad (Aktsiz mobil, tamaki va alkogol)	**Soliq rejasi**	**Tuman mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori**	**Viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori**
Sharof Rashidov tumani	327 784 884,0	41 029 884,0	286 755 000,0	112 300 800,0	174 454 200,0

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-54-187-3-46-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan mahalliy byudjetga ajratmalar me’yori

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i	Yagona soliq to’lovi	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to’laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i (qat’iy belgilangan soliq)	Jismoniy shaxslar yer solig’i	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig’i	Ijara to'lovi	Aktsiz solig’i: - benzin, dizel yoqilg’isi va gaz realizatsiyasidan soliq	Yuridik shaxslar yer solig’i	Suv resurslari-dan foydalan-ganlik uchun soliq	Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq (noruda)	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
1	Sharof Rashidov tumani	30	20	0	100	100	100	100	60	30	100	20	50

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-54-187-3-46-K/23-son qaroriga
4-ilova

Tuman mahalliy byudjetining 2024 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

Ming so'mda

Hudud nomi	Jami daromadlar	shundan			Mahalliy byudjet xarajatlari
		Mahalliy byudjet daromadlar	O’tkazib beriladigan daromad (Aktsiz mobil, tamaki va alkogol)	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
JAMI	**216 376 766,0**	**112 300 800,0**	**41 029 884,0**	**63 046 082,0**	**216 376 766,0**
Sharof Rashidov tumani	216 376 766,0	112 300 800,0	41 029 884,0	63 046 082,0	216 376 766,0

Xalq deputatlari Sharof Rashidov
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-54-187-3-46-K/23-son qaroriga
5-ilova

Sharof Rashidov tumanining tuman mahalliy byudjeti xarajatlarining 2024 yildagi asosiy prognoz ko’rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Jami	JAMI	216 376 766,0
	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash xarajatlari	**147 524 145,0**		
	Tuman Maktabgacha ta’lim bo’limi	16 273 454,0		
	Tuman Xalq ta’limi bo’limi	16 382 469,0		
	Tuman Tibbiyot birlashmasi	108 678 561,0		
	Tuman Madaniyat bo’limi	1 724 186,0		
	Tuman Bolalar va o’smirlar sport maktabi	4 465 475,0		
	Iqtisodiyot xarajatlari	**42 133 324,0**		
	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	**10 089 914,0**		
	Ichki yo’llarni ta’mirlash xarajatlari	**4 000 000,0**		
	Tuman veterinariya bo’limi	1 047 926,0		
	Tuman irrigatsiya bo’limi	1 202 809,0		
	Tuman fermer, dexkon, xo’jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi xuzuridagi buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritish markazi	724 811,0		
	Davlat boshqaruv organlarini saqlash	25 001 075,0		
	Ijtimoiy ko’nikma markazlari	66 789,0		
	Zahira jamg’armasi	**1 925 148,0**		
	Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi	**21 936 838,0**		
	Boshqa xarajatlar	**2 857 311,0**		
	Mahalla byudjeti jamg’armasi	2 857 311,0		

Xalq deputatlari Sharof Rashidov
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-54-187-3-46-K/23-son qaroriga
6-ilova

Tuman mahalliy byudjetida yo’l qo’yiladigan eng kam mablag’lar miqdori

ming so'mda

T/r	Hudud nomi	Miqdori
1	Sharof Rashidov tumani	**756 000,0**

Xalq deputatlari Sharof Rashidov
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-54-187-3-46-K/23-son qaroriga
7-ilova

Qishloq xo'jaligi uchun mo'lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha bo'yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffifentlar

T/R	Mahallalar	Soliq kodeksining 429-moddasiga asosan 1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi, mln.so'mda	Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qo'llanilgan koeffitsient (0,7-3,0)		Mahallalar kesimida 1 gektar uchun yer solig'i, mln.so'mda
			kamaytiruvchi	oshiruvchi	
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*
1	Bobur MFY	54	0,72		38,88
2	Buston MFY	54	0,83		44,82
3	G'ozg'ontepa MFY	54	0,93		50,22
4	Yoyilma MFY	54	0,72		38,88
5	Yoshlik MFY	54	0,93		50,22
6	Jizzaxlik MFY	54		1,04	56,16
7	Ziyokor MFY	54		1,04	56,16
8	Istiklol MFY	54	0,93		50,22
9	Qang'li MFY	54	0,93		50,22
10	Katortol MFY	54	0,9		48,6
11	Katta qishloq MFY	54	0,93		50,22
12	Kaxramon MFY	54	0,93		50,22
13	Korayontok MFY	54	0,72		38,88
14	Kuyovboshi MFY	54	0,93		50,22
15	Kulpisar MFY	54	0,72		38,88
16	Kurpasoy MFY	54	0,72		38,88
17	Qo'shko'prik MFY	54		1,04	56,16
18	Madaniyat MFY	54	0,72		38,88
19	Mulkanlik MFY	54	0,93		50,22
20	Nonisangil MFY	54	0,72		38,88
21	Nurafshon MFY	54	0,82		44,28
22	Oktosh ota MFY	54	0,72		38,88
23	Olmachi MFY	54	0,93		50,22
24	Pastki Suloqli MFY	54		1,04	56,16
25	Rabot MFY	54	0,72		38,88
26	Ravaliq MFY	54		1,04	56,16
27	Samarkandkuduk MFY	54	0,72		38,88
28	Saroylik MFY	54		1,04	56,16
29	Sovungarlik MFY	54		1,04	56,16
30	Sugdiyona MFY	54		1,04	56,16
31	Tarakkiyot MFY	54	0,82		44,28
32	Tinchlik MFY	54	0,72		38,88
33	Tokchilik MFY	54	0,93		50,22
34	Toshkentlik MFY	54		1,04	56,16
35	Tuyokli MFY	54		1,04	56,16
36	Umar MFY	54	0,72		38,88
37	Uch tepa MFY	54		1,04	56,16
38	Fayziobod MFY	54		1,04	56,16
39	Xavastlik MFY	54		1,04	56,16
40	Xayrobod MFY	54		1,04	56,16
41	Xalqobod MFY	54		1,04	56,16
42	Sharillok MFY	54	0,72		38,88
43	Eski Toshkentlik MFY	54		1,04	56,16
44	Yakka qayrag'och MFY	54		1,04	56,16
45	Yangi xayot MFY	54	0,93		50,22
46	Yangi-Diyor MFY	54	0,93		50,22
47	Yangiobod MFY	54	0,93		50,22
48	Yaxtanlik MFY	54		1,04	56,16

Xalq deputatlari Sharof Rashidov
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-54-187-3-46-K/23-son qaroriga
8-ilova

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar (bundan dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar mustasno) uchun hududlar kesimida bazaviy soliq stavkalari 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffifentlar

T/r	Mahallalar	Soliq kodeksining 437-moddasiga asosan 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi, so'mda	Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qo'llanilgan koeffitsient (0,7-3,0)		Mahallalar kesimida 1 kv.m uchun yer solig'i, so'mda
			Kamaytiruvchi	Oshiruvchi	
1	2	3	4	5	6
1	Bobur MFY	374,4	0,7		262,08
2	Buston MFY	374,4	1		374,4
3	G'ozg'ontepa MFY	374,4	0,8		299,52
4	Yoyilma MFY	374,4	0,7		262,08
5	Yoshlik MFY	374,4	0,9		336,96
6	Jizzaxlik MFY	374,4		1,2	449,28
7	Ziyokor MFY	374,4		1,2	449,28
8	Istiklol MFY	374,4	0,9		336,96
9	Qang'li MFY	374,4	0,9		336,96
10	Katortol MFY	374,4	0,9		336,96
11	Katta qishloq MFY	374,4	0,7		262,08
12	Kaxramon MFY	374,4	0,9		336,96
13	Korayontok MFY	374,4	0,9		336,96
14	Kuyovboshi MFY	374,4	0,8		299,52
15	Kulpisar MFY	374,4	0,7		262,08
16	Kurpasoy MFY	374,4	0,7		262,08
17	Qo'shko'prik MFY	374,4		1,2	449,28
18	Madaniyat MFY	374,4	0,7		262,08
19	Mulkanlik MFY	374,4	1,1		411,84
20	Nonisangil MFY	374,4	0,7		262,08
21	Nurafshon MFY	374,4	0,8		299,52
22	Oktosh ota MFY	374,4	0,7		262,08
23	Olmachi MFY	374,4	0,9		336,96
24	Pastki Suloqli MFY	374,4	1		374,4
25	Rabot MFY	374,4	0,7		262,08
26	Ravaliq MFY	374,4	0,9		336,96
27	Samarkandkuduk MFY	374,4	0,7		262,08
28	Saroylik MFY	374,4		1,1	411,84
29	Sovungarlik MFY	374,4	1		374,4
30	Sugdiyona MFY	374,4	0,9		336,96
31	Tarakkiyot MFY	374,4	0,8		299,52
32	Tinchlik MFY	374,4	0,7		262,08
33	Tokchilik MFY	374,4	0,9		336,96
34	Toshkentlik MFY	374,4		1,2	449,28
35	Tuyokli MFY	374,4	0,7		262,08

36	Umar MFY	374,4	0,7		262,08
37	Uch tepa MFY	374,4	1		374,4
38	Fayziobod MFY	374,4	0,7		262,08
39	Xavastlik MFY	374,4		1,2	449,28
40	Xayrobod MFY	374,4	0,9		336,96
41	Xalqobod MFY	374,4	0,9		336,96
42	Sharillok MFY	374,4	0,7		262,08
43	Eski Toshkentlik MFY	374,4	1		374,4
44	Yakka qayrag’och MFY	374,4	1		374,4
45	Yangi xayot MFY	374,4	0,9		336,96
46	Yangi-Diyor MFY	374,4	0,8		299,52
47	Yangiobod MFY	374,4	0,9		336,96
48	Yaxtanlik MFY	374,4	1		374,4